E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Yosh oilalarda sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlovchi milliy-psixologik omillar

Agayeva Diyora
2-kurs psixologiya magistranti (QarDU)
M. Jabborov
Ilmiy rahbar : Psixologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh kelin – kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlash haqida Sharq mutafakkirlarining qarashlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Yosh kelin-kuyov, sog‘lom psixologik muhit, sharq mutafakkirlari, o‘zaro ishonch, mehroqibat, bag‘rikenglik, adolatlilik, sadoqat.

Аннотация: В данной стате рассматриваются взгляди восточних мислителей по обеспечению здорових психологических отношений между молодими женихом и невестой.

Ключевие слова: Молодие жених и невеста, здоровая психологическая среда, восточние мислители, взаимное доверие, доброта, терпимост, справедливост, верност.

Annotation: This article discusses the views of Eastern thinkers on how to ensure a healthy psychological relationship between a newlywed couple.

Keywords: Young bride and groom, healthy psychological environment, oriental thinkers, mutual trust, kindness, tolerance, justice, loyalty.

Mavzuga doir ilmiy manbalarni o‘rganish va milliy-madaniy muhitda olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlar qator iqtisodiy, ijtimoiy, milliy-madaniy, shaxsiy-psixologik omillarga bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot uchun o‘rganilayotgan oilada yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning milliy-psixologik aspektlarini aniqlash uchun o‘tkazilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma (IPS) savollariga javob berishda yosh oilali shaxslar (kelin-kuyovlar) tomonidan ahamiyatiga (rang) qarab tanlanishi (baholanishi) aytildi.

O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning milliy-psixologik aspektlari (omillari) ahamiyatini aniqlashga yo‘naltirilgan anketa so‘rovining natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarda ifodalandi.

1-jadval

O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi milliy-psixologik aspektlar (muhim omillar) va ularning baholanishi (n=52).

№	Omillar	Rang 1,2,3,4,5 o‘rni	Foiz
1.	Yosh oilaning moddiy va maishiy ta’minlanganligi	1,30	94%
2.	Oilada kelin-kuyovning bir-birlarini yaxshi tushunishi, o‘zaro hurmat va ishonchning bo‘lishi	1,20	96%

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

3.	Uy-joy bilan ta’minlanganlik va mustaqil oila sifatida hayot kechirish	2,10	78%
4.	Farzand ko‘rish va uni tarbiyasiga munosabat	1,35	93%
5.	Kelin-kuyovning onglilik va ma’naviy-axloqiy mavqei	1,40	92%
6.	Kelin-kuyov muomala meyoriga amal qilishi, o‘zini tutishi va yurish-turish odobi	1,50	90%
7.	Kelin-kuyovga xos oiladagi rollar (vazifalar) taqsimoti va unga mas’uliyat bilan yondashuv	1,90	82%
8.	Kelin-kuyovning jinsiy mosligi (jinsiy qoniqish)	2,25	75%
9.	Kelin-kuyovning oilaviy munosabatlariga qaynota-qaynonaning tarbiyaviy ta’siri	3,15	57%
10.	Qayn-aka, qayn-uka, qayn-opa va qayn-singillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroki	3,75	45%

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yosh kelin-kuyovlar oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning milliy-psixologik aspektlaridan " Oilada kelin-kuyovning bir-birlarini yaxshi tushunishi, o‘zaro hurmat va ishonchning bo‘lishi"ni eng ta’sirchan (eng muhim) omil deb hisoblaydilar (o‘rinlar yig‘indisi 1,20; 96%). Darhaqiqat, shaxs psixologiyasining tahlillari va xulosalariga ko‘ra, shaxslilik sifat-fazilatlari yuksak darajada shakllangan insonlargina (shu jumladan oila a’zolari ham) bir-birlarini to‘g‘ri tushuna oladilar, bir-birlariga hamfikr, hamjihat, hamkor, kamchiliklar yoki xatoliklar o‘tganda kechirimli va tuzata olish imkoniyatlari borligi, sabr-qanoatli, itoatli, kengashib ish tutadigan, oilaviy muammolar yechimini tez topib, oila totuvligi, farovonligi va ravnaqi yo‘lida ishonch bilan qat’iy, dadil ish ko‘radilar. Ayniqsa, oilaviy turmushda bir-birlarini to‘g‘ri tushunishga intilish, maslahatlashib-kengashib ish tutish, o‘zaro hurmat va mehr-oqibatlilik, ezgu istaklar sari faollik o‘zbeklarga xosdir. Bu sifat va fazilatlarning bo‘lishi va o‘zaro munosabatlarda unga erishishga intilish faqat oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelin-kuyov o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat-ehtirom, mehr-muhabbat va unga sadoqat, izzat-ikrom, hamfikrlilik va munosabatlarning samimiyligi oila mustahkamligini ta’minlashning eng muhim asoslari bo‘lib xizmat qiladi. Har bir millatning tarixan shakllangan o‘zining oilaviy hayoti, turmush tarzi bor. Oilaviy turmushda er bilan xotinning vazifasi va burchlariga oid qadriyatlar mavjud. Er yoki xotinning mazkur qadriyatlarni yetarli darajada o‘zlashtirmaganligi yoki ado eta olmasligi ular orasidagi o‘zaro hurmat, sadoqat va ishonchning asta-sekin so‘nishiga va oilaviy turmushda yomon holatlar shakllanishiga tegishlicha sharoitni yuzaga keltiradi. Shunga ko‘ra, yosh kelin-kuyovning "bir-birlarini yaxshi tushunishi, o‘rtalarida o‘zaro hurmat va ishonchning bo‘lishi" oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning eng muhim tomoni hisoblanadi.

Oilada shaxslararo sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi omillar orasida "Yosh oilaning moddiy va maishiy ta’minlanganligi" (o‘rinlar yig‘indisi 1,30; 94%) ham oldingi o‘rinlarda belgilandi. Oilaning moddiy ta’minlanganligi - unda iqtisodiy-

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

moliyaviy xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri va oqilona yuritish hisoblanadi. Oila a’zolarining o‘z daromadlarini (jamlab) rejali sarflashi kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib, to kiyim-kechak, hatto xo‘jalik asbob-anjomlarigacha meyor bilan xarid qilish, tejamkorlik bilan foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik oilaning keyinchalik ravnaq topishi va gullab yashnashi uchun imkon yaratadi. Moddiy ta’minotdagi kamchiliklar, rejasiz va asossiz sarf-xarajatlar albatta borib-borib oiladagi sog‘lom psixologik munosabatlarni buzilishiga va oila tanazzuliga olib keladi.

1-jadvalda shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta’minlovchi yana bir muhim omil "Oilada farzand ko‘rish va uni tarbiyasiga munosabat " (o‘rinlar yig‘indisi 1,35; 93%) deb tan olindi.

Haqiqatdan ham oilaning asosiy vazifalaridan biri - farzand ko‘rib, uni voyaga yetkazish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir. Oilada farzand tug‘ilishi er-xotin, qaynona-kelin, qaynota-kuyov va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, qon-qarindoshlar orasida mehr-muhabbat hislari yanada mustahkamroq shakllanadi. o‘zbek xalqi bolajon xalq bo‘lgani uchun oilada farzand tug‘ilishi bilanoq uning tarbiyasi va kamoloti bilan bog‘liq ota-onaning orzu-havas va ezgu-niyatlari real namoyon bo‘la boshlaydi va ularni amalga oshirish uchun tinmay izlanadilar. Ular oilaviy turmushda uchrab turadigan mayda-chuyda muammolarga e’tibor bermaydilar, hatto er-xotinning qat’iy tus olgan o‘zaro munosabatlariga oiladagi mayda-chuyda muammolarning ta’sir kuchi sezilmay qoladi.

Oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashda "Kelin-kuyovning onglilik va ma’naviy axloqiy mavqei" (o‘rinlar yig‘indisi 1,40; 92%) ham muhim o‘rinda turishi qayd etildi. Albatta, oilada kelin-kuyovning onglilik va ma’naviy axloqiy mavqei undagi shaxslararo munosabatlarning barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ongli inson u yoki bu narsaning mohiyatini, qadr-qimmatini, ahamiyatini to‘g‘ri anglaydi va uni munosib baholay oladi. Ular ma’naviy-axloqiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo‘lsalar, ularning bir-biriga yoki odamlarga nisbatan munosabatlari, samimiy, odobli, mehr-oqibatli va kechirimliligi, shuningdek, o‘rinli va meyoriy kiyinishi, yurish-turishdagi namunasi kishilarning havasini keltiradi. Ushbu fazilatlar o‘zaro munosabat meyorlarini saqlashga oilada sog‘lom turmush tarzini barqarorlashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aks holda, er-xotin va boshqa oila a’zolari o‘rtasida mehr-oqibatsizlik, bir-biridan norozilik, ishonchsizlik, notinchlik, jizzakilik, umidsizlik, beparvolik, loqaydlik holatlari yuz berganda, bunday noxush holatlar oilaning buzilishi uchun zamin hozirlaydi.

Oila a’zolari (ayniqsa, yosh er-xotin) o‘rtasida kechadigan muomala meyoriga amal qilish, o‘zini tutish va yurish-turish odobi (o‘rinlar yig‘indisi 1,50; 90%) oiladagi shaxslararo sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Oiladagi kundalik muloqot bu hayotiy ehtiyoj sifatida yuzaga keladi. Er-xotinning oiladagi tashkiliy, moddiy, ma’naviy, tarbiyaviy va o‘zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan kechadigan muomala munosabatlari sof va samimiy, erning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o‘zaro hurmati, mehr-muhabbati va iffati asosida qurilsagina unda psixologik nuqtai nazardan musaffo ma’naviy muhit yuzaga keladi, shaxslararo munosabatlar barqarorligi yanada mustahkamlanadi. Erning xotinga, xotinning erga betakallufligi, bir-biriga qo‘pol muomalasi, oilaviy turmush bilan bog‘liq iqtisodiy, tashkiliy, tarbiyaviy va ma’naviy qiyinchiliklarni yengishdagi turli fikrlilik, kelisha olmaslik, beparvolik holatlari asta-sekin undagi shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, ya’ni oilaning inqiroziga olib keladi.

Yosh kelin-kuyovning oila boshqaruvidagi ishtiroki, rollar (vazifalar) taqsimoti va unga mas’uliyat bilan yondashuv (o‘rinlar yig‘indisi 1,90; 82%) muhim ahamiyat kasb etishi qayd

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

etildi. Oilaviy munosabatlar madaniyatining takomillashuvi turli ijtimoiy tarixiy davrlarda turlicha xususiyatga ega bo‘lgan. U hududiy, milliy va diniy o‘ziga xosliklar ta’sirida shakllangan. Bu ayniqsa, xalqimiz ijtimoiy tarixining turli davrlarida ayolning jamiyatda va oilada tutgan o‘rnida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Oilada ayolning o‘rni - onaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Uning sadoqati, ozoda-orastaligi, shirin muomalasi, mehr-muhabbati, shirin taomlar tayyorlashi, mehmon kutishi, saranjom-sarishtaligi, kiyinish va muomala madaniyati, ma’naviy-madaniy savodxonligi, farzandlar, ayniqsa qizlar uchun namuna maktabidir.

Kuyovning yangi oila boshlig‘i sifatida ishbilarmonligi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi, rejali va uylab ish tutishi, bosiqligi, talabchanligi, ko‘p hunarmandligi, halolligi, adolatparvarligi, oila va xotiniga nisbatan sadoqati erlar uchun, ayniqsa farzand uchun andoza sifatida ijtimoiy tasavvurlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Shaxsning faoliyati va xulq-atvor motivatsiyasini tadqiq etgan jahon psixologiyasi yetakchi namoyondalarining(S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, Z.Freyd, I.Braun, A.Maslou, K.Pribram, G.Olport va b.) dalillashicha inson hayotida moddiy ehtiyojlar va ularni meyorida qondirish muhim o‘rin tutadi. Jumladan, er-xotinning jinsiy mosligi (jinsiy qoniqishi) (o‘rinlar yig‘indisi 2,25; 75%) oilada sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning muhim omili sifatida qayd etilgan.

Aynan shu sohada olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha oiladagi ziddiyatlarning shakllanishida yosh er-xotinlarning jinsiy nomutanosibligi (jinsiy qoniqmasligi) ham muhim rol o‘ynaydi. Jinsiy nomutanosib - farzandsizlikka olib kelishi, ko‘p hollarda er-xotinning turmush tarzini keskin o‘zgartirishga yoki boshqadan qurishga sabab bo‘layotganligi ham kuzatilgan. Statistik ma’lumotlarda qayd etilishicha, O‘zbekistonda 2021-yilgi yosh oilalar ajrashuvining 50 foizga yaqinini farzandsizlik tashkil etganligi izohlangan. Jinsiy moslik esa-jinsiy qoniqish, bir-biriga ishonch, mehr-muhabbatli, sadoqatli, hamdam-hamfikr bo‘lishga, oila g‘ururi va sha’nini saqlashga chorlaydi, uning mustahkam va barqarorligini ta’minlaydi.

Yosh kelin-kuyovlar tomonidan yangi oilaning "uy-joy bilan ta’minlanganlik va mustaqil oila sifatida hayot kechirishi" (o‘rinlar yig‘indisi 2,10; 78%) ham sog‘lom va barqaror psixologik munosabatlarni ta’minlovchi muhim tarkib sifatida tan olinganligi ijtimoiy-psixologik voqelikdir.

Millatimizning ijtimoiy-etnik va hududiy xususiyatlariga ko‘ra, har bir oila uy-joy bilan ta’minlangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.Yosh kelin-kuyov uy-joyining ota-ona hovlisi yaqinida bo‘lishi ular uchun yanada qulaylik tug‘diradi. Shu bois, o‘zbek oilasida o‘g‘il farzand tug‘ilsa, ota-ona tezda uy-joy qurish tashvishiga tushadilar, chunki ular ulg‘ayib turmush qurganlarida uyli-joyli bo‘lishi oilaning to‘la-to‘kis faoliyat ko‘rsatishiga, uning a’zolari erkin va farovon turmush kechirishiga asos bo‘ladi. Uy-joy qurish murakkabligi sababli ham tayyor uyi bor yosh er-xotin ko‘p vaqtini imorat qurishga sarflamay, balki oilaning moddiy va ma’naviy ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qiladilar. Oila xo‘jaligi o‘zini tutib olgandan so‘ng, oilada farzandlar o‘sib, ulg‘aya boshlagach, er-xotin ham ota-bobolarining an’nasini davom ettirib, o‘g‘illariga uy-joy qura boshlaydilar. Uy-joy bilan bog‘liq an’ana ko‘pincha shu tartibda davom etaveradi.

O‘zbek xalq qadriyatlarining markazida turuvchi " Kelin-kuyovning oilaviy munosabatlariga qaynota-qaynonaning tarbiyaviy ta’siri (ishtiroki)" (o‘rinlar yig‘indisi 3,15; 57%) zarur omillar sifatida ifodalandi. Sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari va an’analariga binoan yangi oilaga ota-onaning rahnomaligi uni to‘la faoliyat ko‘rsatishiga yaqindan yordam berish yoki doimiy unga g‘amxo‘rlik qilish an’anaga aylangan. Busiz sog‘lom turmish-tarzini tasavvur qilish qiyin. O‘zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan va bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Bu uning ko‘p bo‘g‘inliligidir (bobo, buvi, o‘g‘il, kelin, nevara,

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

chevaralar birga yashashidir). Bunday oilalarda bolajonlilik, serfarzandlilik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila budjeti uning a'zolari bilan bamaslahat ota-ona tomonidan adolatli boshqarilishi, kichik a'zolarning kattalarga hurmat-ehtiromi, bo'ysunishi, itoatkorligi, unda erkakning muhim rol o'ynashi, ota-onaga nisbatan munosabatning alohida ahamiyat kasb etishi, ayollarga nisbatan e'zoz, ularni avaylab-asrash hissining kuchliligi, oila g'ururi va sha'nini himoya qilish a'zolarning burchiga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyiga alohida mehr-muhabbat tuyg'usining mavjudligi xosdir.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, oilada shaxslararo munosabatlar murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'inini er bilan xotin o'rtasidagi munosabatlar tizimi tashkil etadi. Bu munosabatlar kelin-kuyovning hayoti va faoliyatida namoyon bo'lib, uning barqarorligini kelin – kuyovda oilaviy qadriyatlarning shakllanganlik darajasi belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. 2017yil 15 iyun.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: "Ma'naviyat" 2000. -112b
3. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: "Yangi asr avlodi".2007. -144b

WORDLY
KNOWLEDGE